

IJTIMOYIY TARMOQLAR JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY SHAKLI SIFATIDA

Marjona Xaydarova

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

“Davlat boshqaruvi huquqi” yo‘nalishi magistranti

marjonkhaydarova3004@gmail.com

ANNOTATSIIYA: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi ahamiyati hamda tutgan o‘rni, blogerlar faoliyatining huquqiy asoslari haqida to‘xtalib o‘tilgan. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning huquqiy jihatdan tartibga solinishi hamda nazariy-huquqiy masalalar, jamoatchilik fikrini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni yuzasidan xalqaro tajriba va ushbu mavzu yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari keltirilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarga oid qonunchilikni takomillashtirishga oid masalalar batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, “Telegram”, “Instagram”, “Facebook” hamda “TikTok”, “feyk” xabarlar, manipulyatsiya, “trollar fabrikasi”, populizm.

ABSTRACT: In this article, the importance and role of social networks in shaping public opinion, the legal basis of bloggers' activities are discussed. Legal regulation of social networks in the formation of public opinion and theoretical-legal issues, international experience on the role of social networks in the formation of public opinion and the results of a survey conducted on this topic are presented. Also, the issues related to the improvement of the legislation on social networks are covered in detail.

Keywords: social networks, "Telegram", "Instagram", "Facebook" and "TikTok", "fake" messages, manipulation, "troll factory", populism.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются значение и роль социальных сетей в формировании общественного мнения, правовые основы деятельности блоггеров. Представлены правовое регулирование социальных сетей в формировании общественного мнения и теоретико-правовые вопросы, международный опыт о роли социальных сетей в формировании общественного мнения и результаты опроса, проведенного по этой теме. Также подробно освещены вопросы, связанные с совершенствованием законодательства о социальных сетях.

Ключевые слова: социальные сети, «Telegram», «Instagram», «Facebook» и «TikTok», «фейковые» сообщения, манипуляция, «фабрика троллей», популизм.

KIRISH: XXI asr “axborot texnologiyalari asri”da kundalik hayotimizni butunjahon Internet tarmog‘i va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etish qiyin. Bugunga kelib internet insonlar turmush tarziga shunchalik singib ketganki, hayotimizning bir qismini tashkil etgandek. "Butunjahon o‘rgimchak to‘ri" deb ataladigan butunjahon Internet tarmog‘i yil sayin yangidan-yangi sohalarni qamrab olmoqda. Shunday ekan, Internet zamonamizning eng buyuk kashfiyotlari bilan bir qatorda turishga haqli. 20 yil oldin hech kim haqiqatan ham yaqin kelajakda chegarasiz butunjahon Internet paydo bo‘ladi deb o‘ylamagan edi. Internet vaqt yoki millat tanlamaydi, Internet uchun boylar va kambag‘allarga bo‘linish yo‘q. Bu tarmoq keying yillarda tasavvur qilmas darajada globalashdi. Internet yaratilgan yarim asrdan to bugungi kungacha Internet paydo bo‘ldi, rivojlandi hamda tubdan o‘zgardi va ayni daqiqalarda u o‘zgarishni davom ettirmoqda. Hozirgi kunda Internetdan foydalanmaydigan kompyuter foydalanuvchisini tasavvur qilish qiyin. Biroq maqsad nima? Internetning asosiy g‘oyasi – bu ma‘lumotlarning erkin oqimi. Internet tufayli odamlar yoki mamlakatlar o‘rtasidagi irqiy, diniy va mafkuraviy to‘siqlar bartaraf etilmoqda. Internetni osongina eng ta‘sirli demokratik texnologik jarayon yutuqlaridan biri deb atash mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Hozirgi kunda insonlar uchun ma‘lumotlar almashish va muloqot qilish uchun ijtimoiy tarmoqlar qulay vosita vazifasini o‘tamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar hozirgi davrning eng katta kuchiga aylangan bo‘lib,

insonlar hayotining yarmiga aylanishga ulgurib bo'lgan. Ijtimoiy tarmoqlar – o'zimiz haqimizdagi barcha ma'lumotlarni joylashtiradigan va boshqa foydalanuvchilar bilan ma'lumot almashishimiz hamda foto va suratlar, xabarlar almashishimiz mumkin bo'lgan internet platformasi hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda o'z-o'zini rivojlantirish, chet tillarni o'rganish, turli xildagi kitoblarni o'qish uchun vosita sifatida foydalanish mumkin. Bugungi kunda insonlar foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlarning bir qancha turlari mavjud hamda ular foydalanuvchilar uchun o'zlarining ham salbiy ham ijobiy ta'sirlarini o'tkazib kelishmoqda. So'nggi izlanishlarga ko'ra, bugungi kunda insoniyatning 63% qismi internetdan foydalanishi qayd etilgan. Shu jumladan, taxminan 1 yillik davr ichida internetdan foydalanuvchilar soni 200 millionga ortgan. 4,65 milliard foydalanuvchi ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishadi. Dunyo bo'yicha oladigan bo'lsak, 3 milliarddan ortiq kishi turli xildagi messenjerlardan foydalanishadi. Eng ko'p foydalaniladigan platformalar Facebook hamda WhatsApp hisoblanib, 2,5 milliarddan ortiq kishi foydalanishadi. Shuningdek, bir nechta rivojlangan mamlakatlarda o'zlarining milliy messenjerlaridan foydalanishadi. Masalan, Yaponiyada Line, Janubiy Koreyada KakaoTalk hamda Xitoyda esa WeChat. Datareportal.com ning statistik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston aholisining taxminan 70 foizi internet foydalanuvchisi hisoblanadi. Aholining 18,3 % qismi esa ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishadi. Shundan Telegram ijtimoiy tarmog'idan foydalanuvchilar soni 80 foizni; WhatsApp dan esa 22 foizni; Facebook Messengerdan foydalanuvchilar esa 6 foizni tashkil etadi. Shuningdek, aholi tomonidan eng ko'p foydalaniladigan ijtimoiy tarmoq bu Instagram hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu tarmoqdan foydalanuvchilar soni 4,8 mln dan ortiq. Shulardan foydalanuvchilarning 34,4 % qismi ayollar bo'lib, foydalanuvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Bundan tashqari misol sifatida aytadigan bo'lsak, Xitoyning Internet tarmog'i axborot markazi Xitoy internetining rivojlanishi bo'yicha 50-statistik hisobotni ma'lum qilgan. Unga ko'ra, 2022-yilning iyun oyi holatiga ko'ra, Xitoyda internetdan foydalanuvchilar soni 1,051 milliard kishini tashkil etgan hamda internetga kirish darajasi bo'yicha 74,4 foizga yetgan. Hisobotga ko'ra, 2022-yilning iyun oyi holatiga ko'ra, Xitoyda qisqa videolardan foydalanuvchilar soni, ya'ni TikTok va Twitterdan foydalanuvchilar soni sezilarli darajada oshgan va 962 million kishini tashkil etgan, bu 2021-yil dekabriga nisbatan 28,05 millionga ko'payib, Internet foydalanuvchilari umumiy sonining 91,5 foizini tashkil etadi. Lekin, yuqorida tilga olingan vizual ommaviy axborot vositalarining onlayn mish-mishlar, onlayn firibgarlik hamda onlayn zo'ravonlik kabi bir qator muammolari ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishiga va jamoatchilik fikri tendensiyasiga putur yetkazadi.

Jorgensenning ta'kidlashicha, Internet inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarda kafolatlangan so'z erkinligini shubha ostiga qo'yadi. Bir tomondan, Internet odamlarga ma'lumot berish hamda izlashning yangi vositalarini taqdim etish orqali so'z erkinligini oshiradi. Ikkinchi tomondan esa bepul axborot oqimi voyaga yetmaganlarning potensial zararli ma'lumotlarga kirishini cheklash uchun emas, balki kontentni tartibga solish talabini kuchaytirdi.[1] Internet odamlarga makon hamda vaqt ichida tranzaksiya xarajatlarisiz ulanish va fikrlarini almashish imkoniyatini taqdim etadi. Shunisi ahamiyatliki, Internetning ochiq tabiati, ulanish, ma'lumot almashish va g'oyalarni almashish erkinligi ijtimoiy tarmoqlar va olomon moliyalashtirishga asoslangan yangi bizneslarni yaratgan innovatsiyalarga asos bo'ldi, deya ta'kidlaydi Nigeriya Universiteti professori Agba.[2]

Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi ijtimoiy dinamikaning yangi platformasining yaratilishiga turtki bo'ldi va buning natijasida jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi hamda bu ta'sirlarning hayotning turli jabhalariga, masalan, iqtisodiy qarorlar qabul qilishga ta'sir qilish qobiliyatini qayta shakllantirishga olib keldi. Ijtimoiy tarmoqlar o'zining tobora takomillashgan platformalari orqali mahsulotlar, brendlar, xizmatlar hamda investitsiya imkoniyatlari haqida ma'lumot oqimini tezlashtiradi.[3]

O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi hamda rivojlanishi ularning mustaqilligining mustahkam barqaror topishidadir. Biroq ijtimoiy tarmoqlar mustaqilligining mustahkamlanishi ular bilan bog'liq bo'lgan bir qancha jinoyatlarning ham vujudga kelishiga sabab bo'lib bormoqda. Hozirgi kunda

ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa, yoshlarning tarbiyasiga hamda xulq-atvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda "Telegram", "Instagram", "Facebook" hamda "TikTok" kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar hisobida yoshlar ustunlikka egalik qilmoqdalar. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning maqsadlari yuzasidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 32 foiz yoshlar do'st orttirish va ma'lumot almashish, degan fikrni ma'qullagan bo'lsalar, yana xuddi shuncha miqdordagi yoshlar esa ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini yoqlab chiqqan.

Undan tashqari sotsial tarmoqlar g'arazgo'y odamlarning yovuz maqsadlariga xizmat qilishlari mumkin. Masalan, tarmoqqa qo'yilgan axborot hamda xabarlar boshqalar tomonidan o'g'irlanishi, buzilishi va boshqa tarmoq a'zolariga yuborilishi mumkin yoki firibgarlar qalbaki rasmlar va yolg'on ma'lumotlar bilan o'z maqsadlariga erishishlari mumkin. Hattoki sotsial tarmoqlar butun boshli qotilliklar, isyonlar, urushlarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, zamonaviy fanda "informatsion urush" degan atama mavjud. Informatsion urush sotsial tarmoqlarda juda qo'l kelishi mumkin.

Yana bir tomoni borki bu – feyk, ya'ni soxta akkauntlar. Tarmoqlarda o'z fikrlarini ochiq bayon qilishga, yangi tashabbus hamda takliflarini bildirishga tayyor fuqarolar bilan birga "trollar" deb ataladiganlar ham tez-tez uchrab turishadi. Ular o'zlari o'ylab topgan ismlar ostiga yashirilib, kinoyali postlar yoki jamoatchilik ongini boshqarishga urinuvchi ochiq yolg'onlarni tarmoqlarga joylaydi. Izohlarda esa ko'pincha adabiy tilda yozishmaydi, shaxsga o'tadi, odamlarni obro'sizlantirishga, adovatni avj oldirishga harakat qilishadi. Buning natijasida mamlakatda tartibsizlik va g'alayonlarning avj olishiga, moliyaviy zarar ko'rishga olib kelishi mumkin. Misol tariqasida, Zambiyada aholining 80 foizini elektr energiyasi bilan ta'minlovchi «ZESCO» davlat kompaniyasi Xitoyga sotilishi haqidagi yolg'on xabar Internetda tarqalgach, buning natijasida minglab odamlar ko'chaga chiqishdi. Feyk ortidan yuzaga kelgan mitinglar va ommaviy tartibsizliklar kompaniya aksiyalarini qulatilishga olib keldi.

Lekin ijtimoiy tarmoqlardagi tortishuvlar ijtimoiy hayot aralashtirib yuborilishining salbiy ta'sirlari ham mavjud. Misol tariqasida populizm, jamoat ongini manipulyatsiya qilish, "trollar fabrika"si, "feyk" (yolg'on) xabarlar, insonlarning sha'ni hamda qadr-qimmatini, tashkilotlarning ishchanlik obro'sini qoralovchi axborotlarni tarqatish kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Populizm nima? Populizm – asoslanmagan va dalar berish yo'li bilan omma hissiyotlarini o'ynash, safsata va yolg'on-yashiq gaplar bilan xalqda shuhrat qozonishga intilish. Populizm, shuningdek siyosiy boshqaruvning bir turi hisoblanib, hokimiyatga erishishning asosiy vositasi sifatida to'g'ridan-to'g'ri jamoatchilik fikriga, omma kayfiyatiga suyanish usulidan foydalanadi. Shunga ko'ra, populizm muqarrar ravishda siyosiy vaziyatni soddalashtirishga yo'naltirilgandir.[4] Manipulyatsiya esa bu o'z manfaati yo'lida boshqalardan foydalanish, ularni boshqarish orqali ularga ta'sir ko'rsatish hisoblanadi.[5] Haddan tashqari manipulyatsiya – bu axloqiy tamoyillarni hurmat qilmaydigan, aldaydigan hamda boshqalarning zaifligi va ishonuvchanligidan foydalanadigan nayrangchilar, firibgarlar va yolg'onchilarning hiylasidir.[6]

Feyk xabarlar xiyla vositasi sifatida nafaqat ijtimoiy-siyosiy sohada, balki tadbirkorlik sohasida ham foydalaniladi. Ular tadbirkorlik subyektlarini ham katta iqtisodiy yo'qotishlar va obro'siga putur yetkazish bilan qo'rqitib qo'yishmoqda. Masalan, 2016-yilda AQSh prezidentligiga nomzod Donald Trampning millionlab tarafdorlari PepsiCo kompaniyasi mahsulotlariga boykot e'lon qilishdi. Ushbu voqeadan so'ng internet tarmoqlarida go'yoki kompaniya rahbariyati ularga qarshi ekanligi haqida yolg'on axborotlar paydo bo'ldi. Xabar chiqqan kuni AQShning iste'molchilarni qondirish darajasi uchdan bir qismga, dunyo bo'yicha esa 20 foizga tushib ketdi. Kompaniya aksiyalarining narxi birjada keskin tushib ketdi, vaziyatni yaxshilash uchun bir necha oy talab etildi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yuzasidan bir qator chet el mutaxassislar tadqiqotlar olib borib, o'zlarining xulosalarini bayon etishadi. Masalan, D.Boyd AQShning 16 ta shtatida so'rovnoma o'tkazib, so'rovnoma natijalariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardan kelib chiqadigan

ikkita asosiy “qo‘rquv” bor, degan xulosaga keladi. Bular: jinsiy zo‘ravonlik va ma‘lumotlarning maxfiyligi; K.Fuks nemis va avstriyalik talabalar orasida olingan so‘rovnom natijalariga ko‘ra, ma‘lumotlarning maxfiyligi va spam, salbiy imidj yaratish, internetga qaramlik kabi xavflar ro‘yxatini tuzadi; Daniyada M.Larsen davriy nashrlarning mazmunini tahlil qilib, eng ko‘p tilga olinadigan ijtimoiy tarmoqlar muammolari ro‘yxatini tuzib, ularning orasiga jinsiy zo‘ravonlik va qo‘rqitish, ta‘qib qilish hamda tahdid, millatchilik g‘oyalarining tarqalishini kiritadi.

XULOSA

Bugungi kunda jamoatchilik fikri katta ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyatning barcha sohalarida o‘z ta‘sirini ko‘rsatib kelmoqda. Jamoatchilik fikrini shakllantirish maqsadida 1997-yilda O‘zbekistonda jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida "Ijtimoiy fikr" markazi tashkil etilgan. **“Ijtimoiy fikr” markazi** ilmiy-tadqiqot markazi maqomidagi nodavlat notijorat tashkilot hisoblanadi. Ushbu markazning asosiy maqsadi mamlakatimizning ijtimoiy hamda iqtisodiy hayoti, davlat siyosati va hukumat faoliyati to‘g‘risidagi jamoatchilik fikrini tahlil qiladi hamda umumlashtiradi. Bundan tashqari, asosiy maqsadlaridan biri bu – mamlakatimizning barcha sohalarida jamoatchilik fikri dinamikasining asosiy tendensiyalarini aniqlash, o‘rganish va tahlil qilish, shuningdek, tizimli monitoringini olib borish hisoblanadi. Markaz 2023-yildan boshlab butun mamlakatimiz hududlari bo‘ylab birinchi bo‘lib jamoatchilik fikrining sotsiologik so‘rovlarini muntazam hamda tizimli ravishda o‘tkazishni boshladi. O‘zining yigirma yildan ortiq faoliyati davomida sotsiologiya fanida mavjud bo‘lgan turli xil vosita hamda usullardan foydalangan holda 650 dan ortiq tadqiqotlar o‘tkazdi. Tashkilotda muammolarning an‘anaviy usulidan tashqari, mehnat bozori, odam savdosi va migratsiya, korrupsiya, yoshlar, ayollar va katta yoshdagilar muammolari, shuningdek, ekologiya muammolarining dolzarb masalalari, oiladagi kelishmovchiliklar va oilaviy qadriyatlar kabi ko‘plab boshqa masalalarni tadqiq etish dasturlarini ham amalga oshiriladi. Ushbu keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishda Markaz tarkibida davlat, nodavlat va xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorliklar yo‘lga qo‘yilgan.

Shuni ta‘kidlash joizki, bugungi kunda mamlakat miqyosida jamoatchilik fikriga katta ahamiyat berilmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining keng omma muhokamasiga qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayon, birinchi navbatda, fuqarolarimizning eng dolzarb ijtimoiy-siyosiy masala hamda muammolarni muhokama qilish va hal etishda qatnashishga intilishi kuchli ekanligini, turli kasb, yosh va millat vakillarida O‘zbekistonning barqaror rivojlanishidan manfaatdorlik tuyg‘usi yuksak darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ushbu Konstitutsiya referendumga chiqarilishidan oldin loyiha misli ko‘rilmagan hajmda jamoatchilikning keng qatlamlari tomonidan muhokamadan o‘tkazilganligi, 220 mingdan ortiq takliflar kelib tushganligi ham fuqarolarimizning jamiyatda bo‘ladigan o‘zgarishlarga befarq emasligidan dalolat beradi. Negaki, fuqarolar ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o‘zlarining kundalik hayotlari misolida tushunishadi, qabul qilinayotgan qonunlar, davlat dasturlari ta‘sirini mamlakatda ro‘y berayotgan o‘zgarish hamda yangilanishlar orqali chuqur anglab yetishadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu sohani tartibga solishga qaratilgan bir qancha takliflar berib o‘tiladi. Birinchidan, “Bir jinslilar o‘rtasidagi g‘ayritabiiy aloqalarni targ‘ib qilish” iborasi kiritilishi (“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunning 12¹-moddasining to‘ldirilgan shakli, ya‘ni “veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining yoxud boshqa axborot resursining egasi, shu jumladan bloger hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot joylashtiriladigan Internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifasidan yoxud boshqa axborot resursidan: O‘zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo‘rlilik bilan o‘zgartirishga da‘vat etish; ommaviy tartibsizliklarga, fuqarolarga nisbatan zo‘ravonlik qilishga, shuningdek belgilangan tartibni buzgan holda o‘tkaziladigan yig‘ilishlar, mitinglarda, ko‘cha yurishlarida va namoyishlarda ishtirok etishga da‘vat qilish, shuningdek mazkur noqonuniy harakatlarni muvofiqlashtirish; jamoat tartibiga yoki xavfsizligiga tahdid soluvchi yolg‘on axborot tarqatish; urush, zo‘ravonlik va terrorizmni, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g‘oyalarini targ‘ib qilish va hokazo maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘ymasligi shart”). Ikkinchidan esa axborot

xavfsizligida paydo bo‘ladigan har qanday tahdidlar hamda axborot tizimidan foydalanish yo‘riqnomasini Internet jahon axborot tizimidan milliy foydalanuvchilarga tushuntirishlar berish hamda vaqtda xabardor qilish maqsadida turli xil maslahat xizmatlari tashkillashtirilishi hamda ularning vazifa hamda funksiyalari belgilanishi. Ushbu takliflar orqali ko‘zlangan maqsad – butunjahon Internet tarmog‘i va ijtimoiy tarmoqlardagi turli xil provokatsion g‘oyalarning tarqalishini oldini olish hamda ushbu sohani huquqiy jihatdan tartibga solishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jorgensen, R.F. (2011). Internet and freedom of expression. European Masters Degree in Human Rights and Democratization. Raoul Wallengton Institute.
2. Agba, P.C. (2001). Electronic reporting: Heart of the communication age. Nsukka: University of Nigeria Press.
3. Ferine, KF, Ausat, AMA, Gadzali, SS, Marleni va Sari, DM (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri Iste’molchi xatti-harakati. Jamiyatni rivojlantirish jurnali: Pendidikan Masyarakat jurnali,4(1), 843–847. <https://doi.org/10.31004/cdj.v4i1.12567>.
4. Biturayev O‘. B. Siyosatshunoslikka kirish. Toshkent: «Barkamol fayz media», 2017 — 79 bet.
5. Brennan, MD. „[Signs of Emotional Manipulation](http://www.webmd.com)“. www.webmd.com. WebMD. 2020-yil 23-noyabr.
6. Bereczkei, Tamás. [Machiavellianism The Psychology of Manipulation](https://doi.org/10.1080/00220190.2017.1345441), First, London: Taylor and Francis Group, 2017.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni.